**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**
**KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI KAFEDRASI**

# *“TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK JIHATLARI”*

***mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman***



**TOSHKENT-2023**

*“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman*

*2023 yil 15 noyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan* ***“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari”*** *mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjumani materiallari to‘plami.*


**Tahrir hay’ati:**
**Baymuradov Shuhrat Abdujalilovich**
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b.
**Iskandarova Guzal Tulkinovna**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi mudiri
**Samigova Nargiz Raimovna**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi dotsenti
**Tashpulatova Munisa Nigmanjanovna**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Moderatorlar:**
**Kurbanova Shaxnoza Irkinovna**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi dotsenti
**Yusupxo‘jayeva Aziza Majidovna**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi dotsenti
**Rashidov Valixon Akmaljonovich**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi assistenti
**Xadjayeva Umida Abduxamid kizi**
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi assistenti


**To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun muallif(lar) javobgardir**

Guruh xulosasining taqdimoti. 5). Umumiy munozara. 6) Keys bilan ishlashni baholash mezoni.

“Gigiyena” fanidan, masalan “Ovqatlanish salomatlik omili” mavzuni bo‘yicha keysni amalga oshirishda bir qancha vazifalar qo‘yiladi: oziq-ovqat mahsulotlarining to‘la qiymatliligi haqidagi tushunchaga ega bo‘lish; oziq-ovqat mahsulotlarini sanitar ekspertizadan o‘tkazish qoidalarini o‘rgatish; oziq-ovqat mahsulotlarini sanitar ekspertizadan o‘tkazish usullari; oziq-ovqat mahsulotlarini sanitar ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha mahsulotlarni sanitar-gigiyenik jihatdan baholash; olingan natijalar bo‘yicha xulosa berish, ularni tahlil qilish. Shundan so‘ng kichik guruhlarga har bir vazifalar bo‘yicha ma’lumotlar tayyorlash va taqdimot qilish topshirig‘i beriladi. Har bir kichik guruh tayyorlagan ma’lumotlar va taqdimot muhokama qilinib umumiy xulosalar shakillantiriladi va talabalar bilimi baholanadi.

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim usullaridan keys-stadi metodining qo‘llanilishi talabalarni muammoni vaziyatni to‘g‘ri ifodalashga va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga, maqsadga mos holda yechimni izlashga, vaziyatlarni (sharoitlarni) bayonli taqdim etishga, olingan natijalar bo‘yicha xulosa berish, ularni tahlil qilishga o‘rgatadi.

## MEHNAT GIGIYENASI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

**Tashpulatova M.N., PhD, katta o‘qituvchi**
**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi**

O‘zbekistonda har bir sohaga qolaversa oliy ta’lim tizimiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonida mavjud bo‘lgan muammo va kamchiliklarni hal qilish, har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlay

oladigan, tashabbuskor va fidoiy kadrlarni tayyorlash jamiyatimiz rivoji uchun juda zarur. Buning uchun esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta egallash va dars jarayonlariga tadbiq etish o‘rinlidir.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’limda ko‘zlangan natijalarga erishishga bo‘lgan pedagogikaning yo‘nalishiga aytiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko’p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

O‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanish jarayonida o‘qituvchi shu fanga qarashli, psixologik pedagogik, metodik kitoblar, jurnal va gazetalarni muntazam ravishda o‘qib borishi, zamonaviy adabiyot, internetdan foydalanishi kerak. O‘quv mashg‘uloti jarayonida vositalar turlicha bo‘lishi mumkin. Bu o‘qituvchining ixtisosligi, qiziquvchanligi, ehtiyojlari, intellektual faolligiga bog‘liq. Albatta, bunda o‘rganilayotgan mavzu mazmunini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta’lim maqsadini aniq o‘rnatishdan boshlab, to uning natijalarini baholashgacha bo‘lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi.

Pedagogik texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llash jahon amaliyotida keng tarqalmoqda. Zero, o‘quv jarayonini demokratlashtirish, kelishuvchanlik asosida tashkil qilishda hamkorlik, hamjihadlik rivoj topmoqda. Bular o‘quvchining o‘qishga qiziqishini amalga oshirishda xarakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi va o‘qituvchini doimiy izlanishga, uzluksiz o‘z ustida ishlashga undaydi. Bu, o‘z navbatida ta’limda samaradorlikni ta’minlaydi.

Ma’lumki, mehnat gigiyenasi fani tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakul’teti talabalari uchun mutahassislik fanidir. Ushbu fanni to‘liq o‘zlashtirishlari uchun o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik tehnologiyalardan “Muammoli tehnologiya” va “Vunderkind” usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Mazkur usullar guruhdagi

barcha talabalarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik tehnologiyadan foydalanilganda talaba o‘qitilmaydi uni mustaqil bilim olishga orgatiladi, talabalarga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o‘rgatiladi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish talabalarda sub’ektivlikni rivojlantirishga imkon beradi, ularda o‘z-o‘zini anglash istagi, ishtiyoq va kelajakdagi kasblariga qiziqishlari ortib boradi. Talabalar o‘rtasida muloqatni tashkil etishda o‘zgarishlar yuz beradi, bu samimiy va ochiq xatti harakatlarda namoyon bo‘ladi.

## TIBBIY TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Tashpulatova M.N., PhD, katta o‘qituvchi**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi**

**Xodjayev A.Sh., Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakul’teti 5-bosqich talabasi**

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va

# MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| ***KREDIT-MODUL TIZIMIDA O‘QITISHNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI***<br>*Abdullayeva D.G.* | **3** |
| ***KREDIT-MODUL TIZIMINING TALABALAR UCHUN AFZALLIKLARI***<br>*Abdullayeva D.G.* | **4** |
| ***KREDIT-MODUL TIZIMIDA TANLOV FANLARINING KIRIB KELISHI***<br>*Abdullayeva D.G.* | **6** |
| ***YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNI O‘QITISH***<br>*Iskandarov A.B.* | **7** |
| ***NUKUS SHAHRI ATMOSFERA HAVOSINI AVTOTRANSPORT CHIQINDILARI BILAN IFLOSLANISH HOLATI***<br>*Iskandarov A.B., Axmetova F.M.* | **8** |
| ***TALABALAR TOMONIDAN MAVZU MA’LUMOTLARINI QABUL QILISH VA O‘ZLASHTIRISH DARAJASI***<br>*Kurbanova Sh.I.* | **10** |
| ***KEYS STADINI QO‘LLASH USLUBLARI VA VOSITALARI***<br>*Kurbanova Sh.I., Tursunova G.O.* | **12** |
| ***EPIDEMIOLOGIYA FANINI O‘RGATISHDA KEYS – STADI INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH***<br>*Rasulov Sh.M., Toshpo‘latov A.Y.* | **15** |
| ***GIGIYENA FANINI O‘QITISHDA O‘QUV KEYSLARINING AHAMIYATI***<br>*Salomova F.I., Sherqo‘ziyeva G.F.* | **17** |
| ***MEHNAT GIGIYENASI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNI QO‘LLASH***<br>*Tashpulatova M.N.* | **19** |
| ***TIBBIY TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI***<br>*Tashpulatova M.N., Xodjayev A.Sh.* | **21** |
| ***TIBBIYOT FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI***<br>*Toshpo‘latov A.Y., Rasulov Sh.M., Ibragimov A.U.* | **24** |
| ***ASSESMENT TEXNOLOGIYASINI O‘QUV JARAYONIGA JORIY ETISHNING IJOBIY TA’SIRI***<br>*Chutboyev B.R., Soatova N.A., Rasulov Sh.M.* | **25** |
| ***SUV VA INSON SALOMATLIGI***<br>*Shatmanova Guli* | **27** |